



O'zbekiston Respublikasi  
davlat statistika qo'mitasi

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




*2022- yil yanvar-oktabr  
holatiga ko'ra dastlabki ma'lumot*




Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **243 707,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **111,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **52 494,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **133,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **191 212,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **20 144,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,7 %**) tashkil etdi.


## O'sish sur'atlari, foizda



## Tarkibiy qism, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan respublikaning Namangan (113,6 %), Qashqadaryo (113,1 %), Jizzax (112,7 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>243 707,7</b>	<b>111,7</b>	<b>52 494,9</b>	<b>133,1</b>	<b>191 212,8</b>	<b>107,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 244,8	111,6	643,7	140,0	7 601,1	109,7
<i>viloyatlar :</i>						
Andijon	16 657,6	110,1	1 948,9	125,5	14 708,8	108,3
Buxoro	13 980,5	111,2	2 187,6	152,8	11 792,9	105,9
Jizzax	8 741,1	112,7	1 308,4	129,4	7 432,7	110,2
Qashqadaryo	15 717,0	113,1	2 354,2	184,0	13 362,8	106,0
Navoiy	9 369,8	111,5	1 434,8	114,6	7 935,1	111,0
Namangan	14 914,3	113,6	1 234,9	137,0	13 679,4	111,8
Samarqand	20 778,1	111,1	4 267,4	114,0	16 510,7	110,3
Surxondaryo	14 874,8	112,5	1 239,7	152,8	13 635,1	109,9
Sirdaryo	3 706,8	106,1	273,7	96,8	3 433,1	107,0
Toshkent	24 429,9	111,1	6 487,2	138,3	17 942,7	103,7
Farg'ona	19 905,3	110,3	2 245,6	155,0	17 659,7	106,4
Xorazm	10 252,7	112,3	1 895,4	158,7	8 357,3	105,3
Toshkent sh.	62 135,0	112,4	24 973,5	129,1	37 161,5	103,3




## Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-oktabr), mlrd.so'mda



So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbat **111,7 %** ni yoki **243 707,7 mlrd.so'm**ni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, % da



**2022- yilda chakana savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatildi.**




# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **78,5 %** o'sish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **21,5 %** o'sish yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi

*Eng past ulushga ega hududlar, % da*

*Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da*




*Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,5 % ulush bilan 62135,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

*Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,5 % ulush bilan 3 706,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.*




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **191 212,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **7,0 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **78,5 %** ni tashkil etdi.

**Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da  
(Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **33,1 %** ga o'sdi va **52 494,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **21,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.

**Eng past ulushga ega hududlar, % da  
(Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari)**



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (**92,6 %**), Surxondaryo (**91,7 %**), Namangan (**91,7 %**) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **21,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (**40,2 %**), Toshkent (**26,6 %**), Samarqand (**20,5 %**), Xorazm (**18,5 %**) viloyatlarida kuzatildi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

**Yirik korxonalar**



# AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



2022- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 856,1** ming so'mni (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	<b>6 856,1</b>	<b>109,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 207,6	110,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	5 080,3	107,9
Buxoro	7 030,7	109,5
Jizzax	6 007,6	110,2
Qashqadaryo	4 575,7	110,8
Navoiy	8 992,2	109,3
Namangan	5 046,8	111,1
Samarqand	5 114,0	108,8
Surxondaryo	5 377,4	109,9
Sirdaryo	4 186,6	104,0
Toshkent	8 257,8	109,2
Farg'ona	5 071,0	108,1
Xorazm	5 296,9	110,5
Toshkent sh.	21 438,4	108,9

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Toshkent shahri (**21 438,4** ming so'm), Navoiy (**8 992,2** ming so'm) va Toshkent (**8 257,8** ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

### *Eng yuqori hajmga ega hududlar,*

*mlrd.so'm*

**8 257,8**



Toshkent

**8 992,2**



Navoiy

**21 438,4**



Toshkent sh.



7







# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Asosiy tarkib, foizda



Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **20 144,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **12,7** % ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **9 161,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **18,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **10 982,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **8,2** %) tashkil etdi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr oylarida)



Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **20 144,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **12,7** % ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **9 161,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **18,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **10 982,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **8,2** %) tashkil etdi.












**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA  
DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA)  
BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>20 144,2</b>	<b>112,7</b>	<b>9 161,3</b>	<b>118,6</b>	<b>10 982,9</b>	<b>108,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	950,6	117,5	486,3	171,1	464,3	88,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	2 193,2	117,0	784,8	133,7	1 408,4	109,4
Buxoro	1 259,7	106,6	516,0	97,4	743,7	113,8
Jizzax	1 454,1	115,7	676,5	167,3	777,5	91,1
Qashqadaryo	1 683,7	117,1	802,5	102,3	881,2	135,0
Navoiy	521,2	124,3	301,8	120,0	219,5	131,4
Namangan	2 155,2	114,5	1 062,5	123,2	1 092,6	106,5
Samarqand	1 663,4	105,4	486,4	110,7	1 177,0	102,9
Surxondaryo	2 205,6	129,0	910,4	176,1	1 295,3	109,8
Sirdaryo	279,2	130,0	118,1	124,1	161,2	134,4
Toshkent	1 558,2	100,0	484,8	89,9	1 073,4	105,0
Farg'ona	1 397,1	104,7	732,0	109,9	665,0	99,6
Xorazm	1 659,0	102,5	788,7	92,2	870,3	114,4
Toshkent sh.	1 163,9	115,6	1 010,4	111,3	153,5	154,2











\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **9 161,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**4 247,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>4 247,7</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>1 164,3</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)	<b>977,7</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>595,1</b>
	<b>Qurtilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)	<b>438,1</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b>	<b>411,4</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>364,3</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar</b>	<b>360,8</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>288,6</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>156,3</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>116,6</b>
<b>Nooziq-ovqat tovarlari (xonadon va qishloq xo'jaligi)</b>		<b>40,3</b>

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **10 982,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **8 649,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **1 889,2** mlrd. so'mni, otlar **388,3** mlrd. so'mni, parrandalar **55,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Chorva mollar (parrandalar)		Mrd. so'm
	2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	<b>4 884,3</b>
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>2 211,5</b>
	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	<b>1 553,2</b>
	Qo'ylar	<b>1 634,0</b>
	Otlar	<b>388,3</b>
	Echkilar	<b>255,1</b>
	Kurka, o'rdak, g'ozlar	<b>30,9</b>
	Tovuqlar	<b>21,5</b>
	Quyونlar	<b>2,6</b>
	Qushlar	<b>0,9</b>

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **3,5 %** ni tashkil etib, **8 522,6** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **19,0 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **74,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>8 522,6</b>	<b>119,0</b>	<b>2 164,9</b>	<b>146,3</b>	<b>6 357,6</b>	<b>111,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	171,9	104,9	0,5	11,0	171,4	107,4
viloyatlar:						
Andijon	245,7	113,4	18,7	-	227,0	104,8
Buxoro	422,0	109,4	45,5	109,7	376,5	109,3
Jizzax	185,5	109,4	-	-	185,5	109,4
Qashqadaryo	338,6	107,9	16,5	114,9	322,1	107,6
Navoiy	260,1	110,4	29,4	101,6	230,7	111,6
Namangan	239,1	116,6	36,0	469,8	203,1	102,9
Samarqand	585,8	108,8	167,3	99,8	418,5	112,8
Surxondaryo	291,4	106,4	12,4	60,4	279,0	110,1
Sirdaryo	88,4	107,2	0,0	-	88,4	107,2
Toshkent	726,3	117,0	174,8	155,2	551,5	108,6
Farg'ona	374,2	110,1	17,0	141,2	357,2	109,0
Xorazm	170,4	116,6	6,0	792,1	164,5	113,1
Toshkent sh.	4 423,2	132,7	1 640,8	160,2	2 782,4	120,4

# MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2021- yilning yanvar-oktabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 1,1 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 8 522,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 119,0 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 8 516,5 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 6,0 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- y.

2022- y.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	8 522,6	100,0	8 516,5	99,9	6,0	0,07
Qoraqalpog'iston Respublikasi	171,9	2,0	171,9	100,0	-	-
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	245,7	2,9	245,7	100,0	-	-
Buxoro	422,0	5,0	421,8	99,9	0,3	0,06
Jizzax	185,5	2,2	184,6	99,5	0,9	0,47
Qashqadaryo	338,6	4,0	338,6	100,0	-	-
Navoiy	260,1	3,1	259,4	99,7	0,7	0,26
Namangan	239,1	2,8	238,2	99,6	0,9	0,36
Samarqand	585,8	6,9	584,1	99,7	1,7	0,29
Surxondaryo	291,4	3,4	291,4	100,0	-	-
Sirdaryo	88,4	1,0	88,4	100,0	-	-
Toshkent	726,3	8,5	726,3	100,0	-	-
Farg'ona	374,2	4,4	374,2	100,0	-	-
Xorazm	170,4	2,0	170,4	100,0	-	-
Toshkent sh.	4 423,2	51,9	4 421,6	99,9	1,6	0,04



## Savdo hajmi

Ulgurji savdo hajmi



184 148,2 mlrd.so'm

Yirik korxonalar



51 596,1 mlrd.so'm

Mikro firma va kichik korxonalar



132 552,2 mlrd.so'm

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 184 148,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 132 552,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan, bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan 24,3 % ga oshgan. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi 72,0 % ni tashkil qilgan.

28,0

Savdo aylanmasi ulushi, %da

72,0

Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

58,4

Toshkent sh.

7,7

Toshkent

5,6

Farg'ona





## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Buxoro (**233,8 %**), Navoiy (**163,2 %**) va Surxondaryo (**144,5 %**) viloyatlarida kuzatildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>184 148,2</b>	<b>126,0</b>	<b>51 596,1</b>	<b>130,8</b>	<b>132 552,2</b>	<b>124,3</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 278,1	106,3	317,8	68,4	1 960,4	116,8
viloyatlar:						
Andijon	4 415,3	114,9	345,2	61,0	4 070,1	124,2
Buxoro	9 587,8	145,5	3 324,6	232,8	6 263,2	121,3
Jizzax	2 284,9	111,4	424,6	81,2	1 860,3	121,7
Qashqadaryo	3 902,4	112,6	773,1	111,1	3 129,2	112,9
Navoiy	2 491,5	126,3	611,5	163,2	1 880,1	117,7
Namangan	7 226,1	128,8	1 331,4	131,9	5 894,6	128,1
Samarqand	9 442,0	112,6	2 346,5	103,8	7 095,5	115,9
Surxondaryo	4 077,4	127,7	1 034,0	144,5	3 043,4	122,8
Sirdaryo	2 332,0	111,3	223,0	96,2	2 109,0	113,1
Toshkent	14 161,9	120,4	3 972,2	110,8	10 189,7	124,7
Farg'ona	10 309,7	121,2	496,6	115,4	9 813,1	121,5
Xorazm	4 171,0	115,8	804,0	121,6	3 367,0	114,5
Toshkent sh.	107 468,1	129,8	35 591,5	134,6	71 876,6	127,6

# MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **184 148,2** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **184 040,1** mlrd. so'mni va davlat tasarrufga ega korxonalar tomonidan **108,1** mlrd.so'mni tashkil etdi.



*Davlat mulki*



*Nodavlat mulk*

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (**0,1 %**), Navoiy (**0,15 %**) va Andijon (**0,03 %**) viloyatlarida saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi**  
**Тел.: 71-202-80-42 (43)**

*yanvar-oktabr 2022- yil*